
TUMAN HOKIMI QAMISHTEPA MAHALLASI HUDUDIDA JOYLASHGAN “OTALAR OROMGOHI”DA OLIB BORILAYOTGAN OBODONLASHTIRISH ISHLARI BILAN TANISHDI



Qo'shtepa tumanida "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan mahallalar, aholi turar joylari, xiyobonlar, ziyoratgohlar hamda qabristonlarni obodonlashtirish maqsadida o'tkazilayotgan hasharlar yuksak uyushqoqlik va ko'tarinkilik bilan olib borilmoqda.

Hasharlar davomida ariq-zovurlarni tozalash va daraxtlarni oqlash, hududni chiqindilar, shox-shabballardan tozalash ishlari amalga oshirilmoqda.



Tuman hokimi Anvarjon Abdullayev hududlarda bo'lgan chog'ida Qamishtepa mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "Otlar oromgohi"da bo'lib, ushbu joyda olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari bilan ham tanishdi.

Tuman rahbari tomonidan mahalla fuqarolar yig'ini raisiga muassasada obodonlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi asosida mevali va manzarali daraxtlar hamda gul ko'chatlari ekilishini ta'minlash yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-03-13 16:02:30